

**BUYUK O'ZBEK YOZUVCHISI VA SHOIRI G'AFUR G'ULOMNING
SHUM BOLA QISSASIDA DOLZARB HUQUQIY MUAMMOLARNING
TALQIN ETILISHI**

*Gulmurodov Firuzbek Olimjon o'g'li
Toshkent davlat yuridik universiteti talabasi*

Annotatsiya: Sharq va G'arb madaniyatining chuqur bilimdoni G'afur G'ulom asarlarida bir qarashda huquq sohasi bilan bog'lash mushkuldek tuyuladi, amma uning asarlarini chuqur tahlil qilish orqali ayrim dolzarb huquqiy muammolarni kuzatish mumkin. Shu bilan birga G'afur G'ulom o'zining kichik hikoyalarda ham bir qancha huquqiy-axloqiy muammolarni ko'tarib chiqa olgan.

Kalit so'zlar: Nikoh yoshi, mehnatga majburlash, Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi, mehnatga munosib haq to'lash, ko'p xotinlik, jinoyat kodeksi, fuqarolik kodeksi.

Аннотация: В творчестве глубокого знатока восточной и западной культуры Гафура Гулама на первый взгляд кажется сложным связать их с областью права, однако при глубоком анализе его произведений можно проследить некоторые актуальные правовые проблемы. В то же время Гафур Гулам поднял в своих рассказах ряд правовых и этических вопросов.

Ключевые слова: Брачный возраст, Принудительный труд, Всеобщая декларация прав человека, Достойное вознаграждение за труд, Многоженство, Уголовный кодекс, Гражданский кодекс.

Annotation: In the works of Gafur Ghulam, a deep connoisseur of Eastern and Western culture, it seems difficult to connect them with the field of law at first glance, but some actual legal problems can be observed through a deep analysis of his works. At the same time, Gafur Ghulam raised several legal and ethical issues in his short stories.

Key words: Age of marriage, Forced labor, Universal Declaration of Human Rights, Decent remuneration for work, polygamy, Criminal Code, Civil Code.

KIRISH

G'afur G'ulomning ijodiy merosi turli xil hikoyalar, qissalar, pyesalar, she'rlar va dostonlardan iborat. G'afur G'ulomning har bir asarida u xoh yirik hajmli bo'lsin, xoh kichik hajmli ularning har biridan tengsiz mazmunni his qilish, ulkan xulosalar chiqarish mumkin. G'afur G'ulom asarlarida emin-erkin jamiyatdagi kamchiliklar, xususan, axloqiy-huquqiy muammolar qalam ostiga olingan. Uning asarlarini o'qir ekanmiz, u yashagan yillarning qaro kunlari, ochlik, inson huquqlarining xatto eng quyi bog'inlarda buzilishini va bu jihat akademik G'afur G'ulomni ham befarq

qoldirmaganligining bevosita guvohiga aylanamiz. Shu sababli ham adibning asarlari bo‘lajak huquqshunoslar uchun o‘ziga xos maktab vazifasini o‘taydi. Dastavval adibning asarlarini o‘qishingiz bilan uning asarlarida huquqiy masalalar yoritilmagandek tuyuladi. Ammo chuqurroq tahlil qilar ekanmiz, uning asarlari nafaqat adabiyot uchun, balki huquq uchun ham yuksak ahamiyatga egaligi ma’lum bo‘ladi. Misol uchun qator hikoyalari va qissalarida turli xil huquqiy mavzular ko’tarilgan. Fuqarolik, jinoiyat, oila huquqlariga oid munosabatlar shuningdek, korrupsiyaviy munosabatlarni voqealar rivojida o‘ziga xos yoritilganligi tahsinga sazovor.

ASOSIY QISM

Akademik G‘afur G‘ulom o‘zining ijodiy faoliyati bilan huquqshunoslarga u yashagan davrning huquqiy tizimi qanday bo‘lganligi haqida bir qancha xulosalar chiqarishga yordam beradi. G‘afur G‘ulomning “Shum bola” qissasida quyidagi huquqiy muammolar ko‘zga tashlanadi. Asarda shum bola tilidan “ Xast eshonning kichik xotinlari o‘n yettiga yetar-yetmas, juda ham qo‘ling o‘rgilsin. Xuddi “no‘g‘oy qoshiq” day. Ba’zida ko‘nglim allaqanday badxayollarga borib qo‘yadi” – deyiladi [1]. Bundan ko‘rinib turibdiki, nikoh yoshiga yetmagan va shuning bilan to‘liq muomala layoqatiga ega bo‘lmagan Zebixon eshon bilan turmush qurban. Bu holat, bugungi kunda, Oila kodeksi 15-moddasiga mutlaqo zid hisoblanadi. Ushbu moddaga ko‘ra, “Nikoh Yoshi erkaklar va ayollar uchun o‘n sakkiz yosh etib belgilanadi” [2] . Zebixonning 17 yoshga to‘laligicha to‘lib ulgurmasdan, o‘zidan ancha katta yoshli Xasti eshon bilan hayot kechirishi na huquq va na axloq jihatidan yoqlanadi. Bir tasavvur qilib ko‘ring, hali to‘liq voyaga yetib ulgurmagan, hayotning past-u balandi, o‘nqir cho‘nqirlari-yu qiyinchiliklarini bilmagan bir go‘dak butun bir oila boshiga aylanib qolsa. Bu ham yetmaganidek, eshonning “kichik xotini ekanligi”, bu shuni anglatadiki, eshonning boshqa xotini ham bor. Shum bola asari urush yillari voqealarini gavdalantirgan. O‘scha yillar bu kabi holatlarning mavjud bo‘lganligi va tegishli tartibda huquqiy ta’sir choralar ko‘rilmaganligi ta’sirida, qanchadan-qancha gulday farzandlar yetim qolishi, oilalarning darz ketishi, darz ketmay saqlanib qolgan taqdirda ham o‘scha oilada unib o‘sayotgan farzandning hali o‘zi voyaga yetmagan ona qo‘lida katta bo‘lishi, ulg‘ayib ota-onasini taniydigan bo‘lganda esa otasining ikki (balki undan ham ko‘p) xotini borligini, o‘z onasiga bo‘lgan otasining sovuq munosabati ko‘rib, “ Qush uyasida ko‘rganini qiladi” qabilida o‘zi asos soladigan keljakdagi oilasining ham munosabatlarda no‘noqlik qilishiga olib keladi, nazarimizda. Agar xuddi shu holat ayni kunlarda sodir bo‘lsa, O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi 126-moddasi bilan javobgarlikka tortiladi. Moddaga ko‘ra, “ Ko‘p xotinli bo‘lish, ya’ni umumiyo ro‘zg‘or asosida ikki yoki undan ortiq xotin bilan er-xotin bo‘lib yashash — bazaviy hisoblash miqdorining ellik baravaridan yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yilgacha axloq tuzatish ishlari yoki bir yildan uch yilgacha ozodlikni cheklash yoxud uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi” [3] .

G‘afur G‘ulom asarlarida muayyan qolib bilan cheklanish, g‘oyatda rasmiy ohangdorlik emas, erkin tarzda va har qanday o‘quvchiga tushunarli usulda bayon qilish kuchliroq. Adibning “Shum bola” asari insonlarni o‘ziga aynan yuqorida ta’kidlangan jihatlari orqali jalb etadi. Kichik bolakayning keyingi taqdiri qanaqa kechishi, hech shubhasiz, ushbu asarni o‘qishni endigina boshlagan o‘quvchilarga tinchlik bermasligi turgan gap. Shum bolaning shumliklarini biz shunchaki bolalarcha sho‘xlik sifatida baholay olmaymiz. To‘g‘ri, ba’zi o‘rinlarda bolakayning harakatlarida bolalarcha beg‘uborlik mujassam, lekin bir qancha harakatlari, xususan, tinimsiz yolg‘on ishlatishi, bitta gapni o‘nta qilib yetkazib borishi, noqonuniy ishlar bilan shug‘ullanishi asarda ta’kidlangan “go‘dak falsafasi”ga qanchalik mutanosib? Bizningcha, kichik bolakayning shu darajadagi mug‘ombirliklar qilishi, hatto takyadagi ba’zi ishlarini hech tab tortmay qilishiga, uni o‘sha davr tuzumi majbur qilgandir, asarda shum bolaning o‘zi ta’kidlaganidek “insonning o‘ziga eng ko‘p bo‘ysunmaydigan a’zosi – qorni (ochlik a’zobi) sabab bo‘lgandir!?” Shum bola eshonning uyida yashayotgan paytalar yosh ishlashga majbur qiladilar, eng achinarlisi, noqonuniy, insofsizlik yo‘llari bilan. Masalan, eshon Shum bolaga: “oyoq-qo‘ling chaqqongina, epchil yigitsan. Sen ham axir qarab turmasdan boshqacharoq yo‘l bilan bo‘lsa ham tirikchilikning payida bo‘lsang edi, o‘g‘lim...” [4].

Aynan mana shu suhbatdan keyin shum bola “podadan adashib qolgan tanachani yetaklab” eshonning uyiga olib borib beradi. Uni so‘yib yog‘-to‘shini xumga urishadi. Bu esa kimningdir o‘tblab yurgan hayvonini o‘g‘irlash bilan barobar hisoblanadi. Ammo shum bola eshonning gaplarini bola ongi bilan aynan o‘sha “boshqacha yo‘llar to‘g‘ri” degan xulosaga kelgan. Bolalarning majburiy mehnati nafaqat O‘zbekiston Respublikasi qonunlari, balki xalqaro huquq normalari bilan ham taqiqlanadi. Inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasi 23-moddasi buning isboti, “Har bir inson mehnat qilish, ishni erkin tanlash,adolatli va qulay ish sharoitiga ega bo‘lish va ishsizlikdan himoya qilinish huquqiga ega” [5]. Shuningdek, Shum bola Sariboyning uyida bir oy-u o‘n to‘qqiz kun ishlagani evaziga 2 pud sasigan olma organli voyaga yetmaganlarning mehnatini yetarlicha baholanmasligi va ularni arzon ishchi kuchi sifatida qaralib, istagancha ishlatib, so‘ng bola deb qiymati hech narsaga arzimaydigan ish haqi berish holatlari kishini o‘sha davr huquqiy tizimining va bir qancha ishlamaydigan “o‘lik norma” larning borligidan dalolat beradi.

XULOSA

G‘afur G‘ulom o‘z asarlari orqali talaygina huquqiy muammoli holatlar mavjudligini, voyaga yetmaganlarning huquqi yetarli darajada himoya qilinmaganligini “Shum bola” asari orqali ko‘rsatib berishga harakat qilgan. Yuqoridagi misollarda ko‘rinib turibdiki, Sho’ro tuzumi paytlarida voya yetmaganlarning huquqbazarliklari va ularning turli jinoiy guruhlarga qo‘silib qolishining asosiy sababini faqatgina yetishmovchilik, ocharchilik deya olmaymiz, shu

bilan birga, bolalarga nisbatan bee’tiborlik, ularning huquqlarining muhofazasidagi kemtiklarni ham asos sifatida keltirish o‘rinli bo‘lar edi. Chunki, qonun chiqaruvchi tomonidan imperativ norma [6] yaratilar ekan, uning implementatsiyasi bilan bog‘liq harakatlar ketma-ketligi ham ishlab chiqilishi kerak. Ya’ni normalar har doim ham mavjud bo‘lishi mumkin, ammo ularning ijrosi va tadbiq etilishi masalalariga jiddiy yondashinilmas ekan huquqbazarliklar mavjudligicha qolaveradi.

Foydalanilgan manbalar:

1. G‘.G‘ulom. “G‘afur G‘ulom asarlar”. Toshkent., 1973, 205-bet
2. Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 18.05.2022-y., 03/22/770/0424-son., <https://lex.uz/acts/-104720>
3. Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 19.10.2022-y., 03/22/794/0939-son., <https://lex.uz/acts/-111453>
4. G‘.G‘ulom. “G‘afur G‘ulom asarlar”. Toshkent., 1973, 206-bet
5. Inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasi (1948), available at: <https://constitution.uz/oz/pages/humanrights>
6. Imperativ normalar - mperativ (lotincha: imperativus — buyuruvchi) — talab, buyruq, qonun. Nemis faylasufi Kant "Amaliy aklni tanqid" (1788) asarida I.ni etika tushunchasiga kiritgan. Unga ko‘ra, shaxsiy prinsip (maksima)ga qaramaqarshi o‘laroq, hammaga majburiy bo‘lgan rasmiy axloq-odob talabidir., Available at: <https://uz.wikipedia.org/wiki/Imperativ>